

**QUDRAT HIKMATNING “UCH O’RTOQNING SOVG‘ASI”  
SHE’RIDA BOLALARNING ONA TABIATGA BO’LGAN  
MUNOSABATINING BADIY TALQINI**

*Norbekova Sitora,  
O’zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada o’zbek bolalar adabiyotida o’z o’rniga ega ijodkor Qudrat Hikmatning “Uch o’rtoqning sovg‘asi” deb nomlangan she’rida bolalarni ona-Vatanga va tabiatga bo’lgan muhabbatini ulug‘lash hamda shu orqali bolalarni mehnatga o’rgatish g‘oyalari badiiy jihatdan tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** bolalar adabiyoti, tabiat, mehnat, sovg‘a

Har qanday qahriqattiq, bag‘ritosh odam borki, biror san’at na’munasi –ta’sirli she’r, hikoya yoki musiqa eshitganda unga bir lahza rom bo‘lmasdan qolmaydi. Adabiyot ya’ni so‘z san’ati shunday narsaki o’zining butun xilqati bilan insonni og‘ushida allalay oladi, bir necha kun hattoki o‘zi haqida o‘ylab yashashga majbur eta oladi. Ana shunday san’at namunalarini yaratish ham har kimning qo‘lidan ham kelavermaydi, o‘tkir qalam egalarigina faqat kitob yoki daftarning sahifasidangina emas, insonning yurak qo‘ridan, qalbidan joy olishni uddalaydigan san’at asarlarini kashf eta olishadi.

Insonning yetuk, barkamol shaxs bo‘lib yetishida badiiy san’atning ham o‘rni beqiyos. Bu jarayon bola beshikdaligidayoq onaning farzandida ko‘rishni istagan orzu-istiklarini kuyga solib unga alla aytishidayoq namoyon bo‘ladi. Chaqaloqlik, bog‘cha, mакtab, o‘smirlik, o‘rta yoshlik va qarilik kabi bosqichlarning har birida alohida o‘ziga xos badiiy adabiyot namunalariga egadir. Shular ichida eng qiziqarli va o‘z o‘rnida anchagina ma’suliyatatlisi bolalar adabiyoti sanaladi. Nega bolalar adabiyotiga ma’suliyatli deya ta’rif keltirdik, chunki jajji qalblarni o‘ziga rom eta oladigan, ulardagi “bu nima”, “bu qanday”, bu qayerdan keladi” kabi ajoyib savollariga o‘rin qoldirmay barchasini o‘quvchi tasavvurida to‘laqonli gavdalantirib bera oladigan ijod na’munasi yaratish to‘laqonli mas’uliyat, albatta.

Ana shunday mas’uliyatli ishni uddalay olgan, o’zbek bolalar adabiyotida o‘zining o‘chmas o’rniga ega ijodkor Qudrat Hikmatning she’rlaridan yod olmagan bola bo‘lmasa kerak. O‘z asarlarida ona vatanning istiqboli, ravnaqi bolalar bilan bog‘liqligi, ularning o‘qishi, bilishi va halol mehnatga o‘rganishi muhimligini ko‘p bora talqin qilgan ijodkor bolalar adabiyotining eng o‘tkir qalam sohiblaridan bira sanaladi. Uning ko‘plab asarlarida bolalarni vatanga va mehnatga bo‘lgan muhabbatini ulug‘lovchi satrlarni ko‘rishimiz mumkin. “Uch o’rtoqning sovg‘asi” deb nomlangan she’ri ham shunday ijod namunalari qatoriga kirib uch pahlavonning tabiatga qanday sovg‘a bera olishi mumkinligi to‘g‘risidagi bahsi bilan boshlanadi:

Kechqurun katta uyda (Men ham bor edim unda)  
O‘ltirishib uch o‘rtoq, suhbat qurdilar uzoq.  
Navbat bilan oxiri, debdi ulardan biri  
– Gulbahorga endi sen, nima sovg‘a etasan?

She’rning boshlanishi bilan barcha ishlarini, darslarini tugatib, kech tushgan payt bir uyda qizg‘in suhbat olib borayotgan uch do‘sning bejirimgina davrasи barchaning ko‘z oldida gavdalanadi, albatta suhbat davomida gulbahor tilga olinishi- dan bilishimiz mumkinki, she’rda bolajonlarning erta bahor kunlaridan biridagi suhbatи aks ettirilmoqda. Quvonarlisi shuki, o‘ltirishda uch do‘sti ertasi kuni qaysi o‘yinlarni o‘ynashi yoki qanaqa shoxliklar qilib vaqtini chog‘ o‘tkazishi haqida emas, balki yangilanish-yasharish fasli bo‘lgan bahor uchun jippi qo‘llari bilan qanday sovg‘a hozirlay olishlari mumkinligi haqida maslahat qilishmoqda. Bulardek tabiatni, o‘zлari yashab turgan joylarini sevuvchi mehnatkash bolalarni uchratish mushkul.

Salmoqlanib Ne’mat der: – Jamoamiz millioner,  
Bor uning katta bog‘i serhosildir tuprog‘i.

Keyingi misrada bolalarning o‘zларини millioner deb atashi e’tiborni tortadi. Axir, ular hali mакtab o‘quvchisi bo‘lsa, qayerdan bo‘lsin millionlar? Lekin, ularning ixtiyorida pul-boylikdan ham muhimroq katta, serhosil va mevali bog‘ bor edi. Mana bilimdonlar millionermiz deya nimani nazarda tutishgani ma’lum bo‘ldi.

Ko‘rkamlikda yagona , tut ko‘chatdan yuz dona –  
Ekaman Xol bobomdek, o‘sib olma, bodomdek,  
Bo‘lsinlar yashil daraxt, barglaridan hamma vaqt,  
Ipak qurtlar bahr olsin, Dong‘i elga taralsin.  
Mana mening sovg‘am shu.

Barchamizga ma’lumki, bizning vatanimizda ipak qurtlar boqiladi va xalqimizga, davlatimizga ko‘plab foyda olib keladi. Ipak qurtlar esa tut daraxtining barglari bilan oziqlanishi hech kimga sir emas. Demak, tut daraxtini eksa nafaqat tabiatga balki, mamlakatimizga ham moddiy jihatdan yaxshigina foyda olib kelishi turgan gap. Ne’mat o‘zining oldiga tut ko‘chatini ekishni maqsad qilgani tahsinga sazovordir. Xol bobomdek ko‘chat ekaman deganidan “qush uyasida ko‘rganini qiladi” maqolining qanchalik to‘g‘riligiga amin bo‘lishimiz mumkin. Boladagi bunday foydali ishlarni qilishga bo‘lgan xohish oila muhitida singdirilgan ekan. U ekkan tutlarning soyasidan odamlar bahramand bo‘ladilar, ob-havoni zararli changlardan tozalaydi. Shunday ekan, qahramonimiz nafaqat tabiatga sovg‘a beryapti, balki savobli ishga qo‘l urayapti deb bemalol aytishimiz mumkin.

Yana qizir tortishuv: – Gulbahorga endi sen  
Nima sovg‘a etasan? – Bolalar, – dedi, Ergash,

Bolalarning ismi nomma-nom tilga olinayotganligidan bilishimiz mumkinki, har bir pahlavon tabiat uchun o‘zining sovg‘asini tayyorlamoqchi bo‘lib yurgan ekan.

Ularning bu yaxshiliklarini katta odamlarda ko‘rish ham qiyin, albatta. Shunday ekan, o‘zlarini maroqli o‘yinlaridan va darslaridan vaqt orttirib, mitti qo‘llari bilan Gulbahorga sovg‘a hozirlashni niyat qilgan bolajonlarning bu ishlari tahsinga sazovordir.

Bog‘da ishlash tag‘in gasht. Har xil rangli gullardan  
Tanlab-tanlab ulardan, maktabimiz yoniga,  
Dam olish maydoniga, yangi gulxona yasab,  
O‘tkazaman safma-saf.

Ergash maktabning yonidagi xiyobonni gulzorga aylantirmoqni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yibdi. Turli-tuman gullar, guldan-gulga qo‘nib yurgan kapalaklar va ulardan taralayotgan xushbo‘y is insonning bahridilini ochishi va har qanday hafa bo‘lgan insonni ham ko‘tarinki kayfiyatga olib kelishi quvonarli hol. She’rni o‘qiguvchi kitobxon ham gulzorni ko‘z oldiga gavdalantirib, hattoki hayolan gulzorda sayr qilib, o‘zgacha yoqimli quvonch hissini tuyishi turgan gap.

Shabodalar ertalab, g‘unchalarni erkabal,  
Yoqimli hidlar sochsin, kishi bahrini ochsin.  
Mana mening sovg‘am shu. Lekin oson emas bu.  
– Gulbahorga endi sen Nima sovg‘a etasan? –

Dunyoda bahor tonggidanda go‘zalroq manzara bo‘lmasa kerak. Ertalab uyg‘onib hovliga chiqqanda musaffo havo, go‘zal manzara, mayin shabada va kulimsiragandek boqib turgan o‘t-o‘lanlardagi tomchi-tomchi shudringlar insonni go‘yo ertaklardagi sehrli diyorga tushib qolgandek o‘zgacha ko‘yga soladi. Kishilarga shunday go‘zallikni ularshishni niyat qilgan Ergash haqiqatan ham foydali va savobli ishga qo‘l urgan deb bemalol aytishimiz mumkin. Qanday chiroyliya ko‘chadan o‘tgan har bir inson u yaratgan go‘zallikdan bahramand bo‘ladi, maktabga har kuni borganda va qaytganda uning o‘zi ham o‘z mo‘jizasidan zavq oladi:

Qodirjon dedi: -Men ham, quti yasyman ko‘rkam  
Qushlar unga in solar, yayrab o‘sar qushchalar.  
Chittak, mayna, bulbullar bizga qalin do‘st ular.

Gulbahor uchun tutzor va gulzor barpo etilishi haqida rejalashtirib olindi. Navbatdagi qahramonimiz ham tabiat uchun foydali bo‘lgan hadya o‘ylab topibdi. Qodirjon qushlar uchun inlar yasashni niyat qilibdi. Ular bexavotir va qulay yashashi uchun o‘zining beminnat yordamini bermoqchi ekan jajji do‘stimiz. Axir, qor va yomg‘irga ularning o‘zлari yasagan inlari bardosh berolmasligi va turli xil hayvonlar ularning polaponlariga hamla qilib qolishi mumkinda. Qodirjonning nega aynan qushlarga g‘amxo‘rlik qilgisi kelgan ekan?

Turli zararkunanda hasharotni ko‘rganda,  
Ayamasdan har qatda qirib tashlar, albatta.  
O‘ynab behi, olchada, yursinlar keng bog‘chada,

Mening sovg‘am shu bo‘lar, bog‘ga husn qo‘shilar.

Mana nima uchun qushlarning g‘amini yeyotganligining sababi ochildi. Peshona teri to‘kilib, qancha mehnatlar bilan unib-o‘sgan ekinlarni yuq joydan ega chiqib yaroqsiz holatga keltirib ketishsa-ya. Xuddi shu zararkunandalarni ayovsiz qirib tashlab tabiatga, insonlarga katta foyda keltiradigan qushlar qancha e’zozlansalar ham kamdir. Shunday ekan ular e’tiborga loyiqlar, albatta. Qushlar bizning qanotli do‘stilarimiz deya doimo ardoqlanib kelingan. Ular uchun in yasab bog‘ga o‘rnatish juda yaxshi taklif bo‘lgan. Ko‘rkam va ajoyib uychalar bog‘ning husniga yanada husn qo‘shib turishi yanayam ajoyib. Shunday qilib qahramonimiz nima uchun qushlarni tanlaginining sababini ham oydinlashtirib oldik.

Xullas, mehnat – baxt, shu baxtni qo‘lga kiritish uchun, avvallo, unga xohish va muhabbat bo‘lishi kerak. Qudrat Hikmatning “Uch o‘rtoqning sovg‘asi” deb nomlangan she’ri ana shunday mehr-muhabbatni nafaqat bolalar, balki kattalarning ham qalbida uyg‘onishiga turtki bo‘ladigan asarlari sirasiga kiradi. Ushbu she’rni bolalarni har xil zararli va bekorchi o‘yinlardan ko‘ra foydali ishlarga jalb qilish, yashab turgan zaminga mehr, mehnat kishilarga muhabbat va o‘zlari bunyod etgan narsalarni e’zozlashga o‘rgatish kabi tarbiyaviy da’vatlarni o‘zida mujassamlashtirgan asar deb qo‘rmasdan aytishimiz mumkin.

### **Adabiyotlar**

1. Qudrat Hikmat (1925-1968)- Ziyo uz.com.
2. Qudrat Hikmat - Arboblar.uz.
3. Qudrat Hikmatning badiiy mahorati - arxiv.uz.
4. Bolalar adabiyoti - Samarqand Davlat universiteti kutubxonasi.
5. Qudrat Hikmat- yoshlik jurnali.uz
6. Rahimova G. Ona tili va adabiyot (bolalar adabiyoti). O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri. 303-b.